

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/31.03.2023.T.66.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

ABDURAZZOQOVA MAMURA NEMATJONOVNA

QAND JO‘XORI (SORGHUM SACCHARATUM PERS) POYASIDAN
SHARBAT OLIH, ASALARI UCHUN OZUQA TAYYORLASH
TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH

02.00.17 - Qishloq xo‘jalik va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish, saqlash hamda qayta
ishlash texnologiyalari va biotexnologiyalari

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

Namangan - 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Abdurazzoqova Mamura Nematjonovna

Qand jo‘xori (*Sorghum saccharatum Pers*) poyasidan sharbat olish, asalari uchun ozuqa tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqish 3

Абдураззоқова Мамура Нематжоновна

Разработка технологии получения сока из стеблей сахарного сорго (*Sorghum saccharatum Pers*) и приготовления корма для пчёл 21

Abdurazzoqova Mamura Nematjonovna

Development of technology for obtaining juice from sugar sorghum (*Sorghum saccharatum Pers*) stalks and preparing food for bees 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 43

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/31.03.2023.T.66.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

ABDURAZZOQOVA MAMURA NEMATJONOVNA

**QAND JO‘XORI (SORGHUM SACCHARATUM PERS) POYASIDAN
SHARBAT OLISH, ASALARI UCHUN OZUQA TAYYORLASH
TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

**02.00.17 - Qishloq xo‘jalik va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish, saqlash hamda qayta
ishlash texnologiyalari va biotexnologiyalari**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Namangan - 2024

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/T2360 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan muhandislik-texnologiya instituti va Toshkent davlat agrar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.nammti.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim tarmog'iga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Azizov Aktam Sharipovich
qishloq ho'jaligi fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Mamatov Sherzod Mashrabjanovich
texnika fanlari doktori, professor
Dadamirzayev Muzaffar Habibullayevich
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/31.03.2023.T.66.05 raqamli ilmiy kengashning 2024 yil « 4 » oktyabr soat 14⁰⁰dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko'chasi, 7- uy. Tel.: (69) 225-10-07, faks: (69) 228-76-75, e-mail: niei_info@edu.uz, Namangan muhandislik-texnologiya instituti, 3- bino, 1-qavat, Ilmiy kengash xonasi, 303- xona).

Dissertatsiya bilan Namangan muhandislik-texnologiya institutining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (311-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 160115, Namangan sh., Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.: (99869) 225-10-07.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil « 20 » sentyabr kuni tarqatildi.
(2024 yil « 20 » sentyabrdagi №11- raqamli restr bayonnomasi)



A.A. Xudayberdiyev
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy
kengash raisi, t.f.d., professor

O.T. Mallaboyev
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy
kengash kotibi, PhD, dotsent

A.M. Xurmamatov
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy
Kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Bugungi kunda dunyoda aholi sonining o'sib borishi natijasida, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmini oshirish, oziq-ovqat mahsulotlari assortimentini kengaytirish hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Shu sababdan, turli xildagi makro- va mikroelementlar, uglevodlar, oqsillar va vitaminlarga boy bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlariga, jumladan tarkibiga asal va asal mahsulotlari qo'shib tayyorlangan mahsulotlarga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Bu o'rinda oziq-ovqat tarmog'i korxonalarini qishloq xo'jalik mahsulotlariga dastlabki ishlov berish sub'yektlari bilan integratsiyasini kengaytirish hamda ilm-fan va texnika yutuqlariga asoslanib mahsulot ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish va texnologik jihozlarning yuqori samarali ixcham konstruksiyalarini yaratish bo'yicha tadqiqotlarga katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu aspektda asalarichilik xo'jaliklarida xalqaro standartlar talablariga mos keluvchi sifatli asal tayyorlashni kengaytirishga yo'naltirilgan tadqiqotlar muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Jahonda asal yetishtirish agrotexnologiyalarini takomillashtirish va mazkur tarmoq uchun zamonaviy texnologik jihozlar yaratish bo'yicha ilmiy-amaliy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada tabiiy ekinzorlar, melliferous (asalli) o'simliklar qisqargan hududlarda asalarilar hayoti va ko'payishi uchun tarkibida oqsil, mineral, vitamin va uglevodlar mavjud bo'lgan tabiiy va ekologik sof ozuqalar yaratish, noodatiy, poyasi tarkibida uglevod va vitaminlarga boy sharbat yeg'uvchi osimliklarni qayta ishlash asosida tabiiy va tannarxi arzon ozuqa yaratish orqali asalarichilik xo'jaliklarining ozuqa bazasini mustahkamlashga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda ham bugungi kunda asal tayyorlash va asal mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini orttirish va sifatini yaxshilash borasida bir qator ilmiy-amaliy natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasining «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining «Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash» deb nomlangan uchinchi yo'nalishida «... milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashga qaratilgan sanoat siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, yalpi ichki mahsulotda sanoatning ulushini oshirish va sanoat ishlab chiqarish hajmini 1,4 barobarga oshirish...»¹ kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, mahalliy o'simlik xom ashyolarini qayta ishlash asosida asalari oilalarini mavsumdan tashqari (kech kuz va erta bahor) davrlarda boqish uchun tabiiy ozuqalar tayyorlash texnologiyalarini yaratishga qaratilgan ilmiy izlanishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» to'g'risidagi Farmoni, 2017 yil 16 oktyabrdagi PQ-3327-sonli «Respublikamizda asalarichilik tarmog'ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2020 yil 9 sentyabrdagi PQ-4821-sonli «Respublika oziq-ovqat sanoatini jadal rivojlantirish hamda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'laqonli ta'minlash chora-

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yilning 28 yanvardagi PF-60 – sonli «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» gi Farmoni

tadbirlari to'g'risida"gi va 2020 yil 10 noyabrdagi PQ-4887-sonli "Aholini sog'lom ovqatlanishini ta'minlashga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur soha faoliyatiga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishiga muvofiq holda bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Qand jo'xorining turli xil navlarini qayta ishlash va undan oziq-ovqat sanoatida foydalanish, asalari oilalari uchun vitamin va minerallarga boy tabiiy ozuqa manbalarini yaratish yo'nalishlarida dunyoda V.A. Belkovskiy, A.Z. Bolshakov, A.N. Astashov, S.I. Kononenko, A.Z. Brandrof, V.V. Yermolayev G.F.Taranov, O.N. Karpov, N.A Kovtunova, Ye.N. Yefremova, G.I. Jetkizgen, A. Ishkildin va N.V. Budnikova, respublikamizda esa K.K. Karibayev, S.S. Saidgaziyev, I.V. Massino, N.Sh. Muminov, A.Sh. Azizov, Q.K. Azizov, R.O. Mirzayev, Q.O. Dodayev, Sh.A. Sodiqova, O.A. Maxmadiyarov, A.P. Bezverxov, O.S. To'rayev, G.B. Koshpayeva va boshqa olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

Mazkur olimlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida asal yetishtirish va asalari uchun ozuqalar tayyorlash texnologiyalari takomillashtirilgan, mavsumdan tashqari davrlarda qo'llaniladigan an'anaviy shakarli sirop ozuqasiga tarkibiga vitamin va organik moddalar tutgan preperatlarni kiritish, turli probiotika va biostimultorlardan foydalanish retsepturalarini ishlab chiqish, undirilgan bug'doy kraxmali asosida oqsilga boy shirali suyuqliklar ishlab chiqarish kabi qator dolzarb masalalar o'rganilib, natijalari amaliyotga tavsiya etilgan.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, bugungi kunda, respublikamizda aynan qand jo'xori poyasi sharbatidan asalari oilalari uchun tabiiy ozuqa manbai sifatida foydalanish imkoniyatlari yetarli darajada o'rganilmagan. Jumladan, qand jo'xori poyasidan presslab sharbat olish, siqilma tarkibidagi qoldiq uglevodlarni diffuziya usulida yuvib olish, diffuzion sharbatni tozalash va quyultirish, mazkur jarayonlarni modellashtirish va optimal sharoitlarda tashkil etish bo'yicha yetarli darajada ilmiy tadqiqotlar olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan muhandislik-texnologiya institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq hamda "Qand jo'xori poyasidan sharbat olish va asalari uchun ozuqa tayyorlash texnologiyasini tadqiq etish" mavzusida "Abduvoxid Abdug'affor Umidjon" (№ 63, 18.06.2021 y.) va "Nazijon Ilxomjon Arabboy" (№ 74, 24.06.2022 y.) asalarichilik xo'jaliklari bilan tuzilgan hamkorlik shartnomalari (2021-2023 yy.) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi qand jo'xori (*Sorghum saccharatum Pers*) poyasidan sharbat olish va asalari uchun ozuqa tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

qand jo'xori poyasining texnologik xususiyatlarini o'rganish, uni presslab sharbat olish va poya siqmasi tarkibidagi qoldiq uglevodlarni diffuziya (ekstraksiya) uslubida ajratib olish jarayonlarining ratsional parametrlarini aniqlash;

qand jo'xori sharbatini quyultirish jarayonining optimal texnologik parametrlarini aniqlash;

quyultirilgan qand jo'xori sharbatining kimyoviy tarkibi va fizik xossalarini o'rganish;

quyultirilgan qand jo'xori sharbatidan asalari oilalari uchun ozuqa tayyorlash jarayonlarining prinsipial texnologik sxemasini ishlab chiqish;

qand jo'xori sharbatidan asalari ozuqasi sifatida foydalanish me'yorlarini ishlab chiqish va asal mahsulotlarining sifat ko'rsatkichlarini aniqlash;

quyultirilgan qand jo'xori sharbatidan asalari uchun tabiiy ozuqa ishlab chiqarish texnologiyasini amaliyotga joriy etishning texnik-iqtisodiy samaradorligini baholash.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida qand jo'xori o'simligini ertapishar "Qorabosh", o'rtapishar "Oranjevoye 160", kechpishar "O'zbekiston 18" navlarining poyasi, poya siqmasi, poya sharbati va konsentrati asosida tayyorlangan asalari ozuqalari olingan.

Tadqiqotning predmeti qand jo'xori navlarini qayta ishlash usullari, texnologik jarayonlari va jixozlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishini bajarishda xom ashyo va tayyor mahsulotlar sifat ko'rsatkichlarini aniqlashning umumqabul qilingan fizik-kimyoviy, maxsus va orgonoleptik usublari, yuqori samarali suyuqlik xromatografiya (YUSSX), plazma mass-spektometriya (IBP MS, NEXION 2000) usullari va vositalaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qand jo'xori poyasini presslab sharbat olish va poya siqmasi tarkibidagi qoldiq uglevodlarni suvda ekstraksiyalab ajratish jarayonlarining asosiy qonuniyatlari aniqlangan;

qand jo'xori poyasi sharbatini shaffoflantirish va biopolimerlarni gidrolizlash bosqichlari hamda jarayonning asosiy ko'rsatkichlari asoslangan;

qand jo'xori sharbatini bug'latib quyultirish jarayonida texnologik parametrlar: sharbatni qizdirish harorati $45 \div 50$ °C, qurilmadagi ishchi bosim 94 kPa da quyultirilgan sharbat tarkibidagi quruq moddalar konsentratsiyasi 48 ± 2 % gacha ortishi aniqlangan;

quyultirilgan qand jo'xori sharbatining kimyoviy tarkibi va fizik xossa ko'rsatkichlari: zichligi $1,08 \div 1,2$ kg/sm³ va qovushqoqligi $6 \div 9$ Pa's aniqlangan;

quyultirilgan qand jo'xori sharbatidan asalari ozuqasi tayyorlashning ilmiy asoslangan me'yorlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

qand jo'xorini erta pishar "Qorabosh", o'rta pishar "Oranjevoye 160" va kech pishar "O'zbekiston 18" navlari tarkibidagi quruq moddalar miqdori $19 \div 21$, $20,2 \div 22$ va $21,4 \div 23$ % (mass.) oraliqda bo'lishi aniqlangan;

qand jo'xori sharbati tarkibida makro- va mikroelementlar, uglevodlar, oqsil, aminokislotalar va vitaminlar miqdorlari aniqlangan;

qand jo‘xori sharbati (Sh) va an‘anaviy shakar qiyomini (Q) quyidagi nisbatlarda aralastirib tayyorlangan ozuqa namunalarini asalari oilalari tomonidan iste‘mol qilinish ko‘rsatkichlari: 10%Sh+90%Q, 30%Sh+70%Q va 50%Sh+50%Q - 95 % dan yuqori, 70%Sh+30%Q - 89 ± 1 % ni tashkil etishi aniqlangan;

qand jo‘xori sharbatidan asalari ozuqasi tayyorlash texnologiyasining prinsipial sxemasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy natijalarni muallifning eksperimental tadqiqotlari natijalari, sanoat-tajriba sinovlari va adabiyotlarda keltirilgan tajribaviy ma‘lumotlar bilan o‘zaro mosligi hamda laboratoriya tahlillarida yuqori aniqlikda ishlovchi sertifikatlangan xromatografiya (YUSSX) va mass-spektometriya (IBP MS, Nexion 2000) uskunalari va zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil usullaridan foydalanilganligi bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining *ilmiy ahamiyati* qand jo‘xori poyasidan presslash va ekstraksiyalash uslublarida sharbat ajratib olish, uni tindirish, fermentativ tozalash va bug‘latib quyultirish bosqichlaridan iborat asalari ozuqasi tayyorlash texnologiyasi yaratilganligi, poya siqmasidan sharbatni diffuziya usulida ajratib olish va uni quyultirish jarayonlarining optimal rejimlarini aniqlanganligi, quyultirilgan sharbatning kimyoviy tarkibi va fizik xossa ko‘rsatkichlarining o‘zgarish chegaralari aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining *amaliy ahamiyati* mahalliy qand jo‘xori navlarini qayta ishlash asosida asalari ozuqasi tayyorlash texnologiyasi va texnologik tizimi ishlab chiqilganligi, ozuqa tayyorlashda qo‘shiladigan qand jo‘xori sharbati va an‘anaviy shakar qiyomining me‘yoriy nisbatlarini o‘rnatilganligi va mahalliy o‘simlik xom ashyosi asosida asalari oilalari uchun qo‘shimcha tabiiy ozuqa bazasi yaratishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qand jo‘xori (*Sorghum saccharatum* Pers) poyasidan sharbat olish va asalari uchun ozuqa tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

qand jo‘xori poyasidan quyultirilgan sharbat olish texnologiyasi Toshkent viloyati Zangiota tumani Ozuqa ekinlari ilmiy-tajriba stansiyasida amaliyotga joriy etilgan (“O‘zbekiston asalarichilari uyushmasi”ning 2023 yil 22 noyabrdagi 150-11-son ma‘lumotnomasi). Natijada, qand jo‘xorining uchta navi poyasidan quruq modda miqdori 20÷23 % bo‘lgan sharbat olinib, fermentlash va shaffoflantirib bug‘latish yo‘li bilan 50 % li qand jo‘xori siropi tayyorlash imkoniyati yaratilgan;

quyultirilgan qand jo‘xori sharbati va an‘anaviy ozuqa - shakar qiyomi aralashmasi asosida asalari oilalari uchun ozuqa tayyorlash texnologiyasi Toshkent viloyati Oxangaron tumani va Namangan viloyati Yangiqo‘rg‘on tumani asalarichilik xo‘jaliklarida amaliyotga joriy etilgan (“O‘zbekiston asalarichilari uyushmasi”ning 2023 yil 22 noyabrdagi 150-11-son ma‘lumotnomasi). Natijada, kech kuz va erta bahor oylarida tavsiya etilgan ozuqa bilan boqilgan asalari oilasi asalida, an‘anaviy ozuqa berilgan holatda olingan asalga nisbatan, diastaza sonini (amilolitik fermentlar faolligini) 1,69 marta orttirish, asal tarkibidagi zaiflangan shakarning massaviy ulushini 0,25 % ga oshirish va asaldagi namlikning massaviy ulushini 7,9 % ga kamaytirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur ilmiy tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, jumladan, 7 ta mahalliy va 3 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 110 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi hamda dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilib, uning ob'yekti, predmeti va usullari tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati bayon etilgan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi asoslangan, tadqiqot natijalarining ishlab chiqarishga joriy qilinishi, aprobatsiyasi va e'lon qilinganligi hamda dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Asalarichilikda qo'llanilayotgan an'anaviy ozuqa turlari va qand jo'xori poyasi sharbatidan ozuqa sifatida foydalanishning ahamiyati**" deb nomlangan birinchi bobida ilmiy-texnik adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlar asosida xorijiy va respublikamiz olimlari tomonidan ushbu yo'nalishda olib borgan tadqiqotlari, asalarichilik tarmog'ida foydalanilayotgan ozuqa manbalarining bugungi kundagi holati, tabiiy ozuqa manbai sifatida foydalanilayotgan resurslar (mevali daraxtlar, o'simliklar, qishloq xo'jalik ekinlari) va an'anaviy ozuqa turiga aylangan shakarli qiyom tayyorlash texnologiyalari tahlil qilingan. Qand jo'xori o'simligi navlari va ulardan sharbat, qiyom va potoka tayyorlashda foydalanish hamda qand jo'xori sharbatidan asalarichilikda foydalanishning dolzarbligi va zaruriyatini asoslovchi ma'lumotlar batafsil tahlil qilingan. Ilmiy-texnik manbalarda keltirilgan materiallar tahlili natijalari asosida tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning "**Tadqiqot ob'yekti va tayyor mahsulotning sifat ko'rsatkichlarini aniqlash uslublari**" deb nomlangan ikkinchi bobida Namangan MTI, Toshkent DAU, O'zR FA Biorganik kimyo instituti, Toshkent viloyati Zangiota tumani Ozuqa ekinlari ilmiy-tajriba stansiyasi, Namangan viloyati SEOJSB muassasasi va Respublika oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi Davlat markazi laboratoriyalarida o'tkazilgan tajribalarni amalga oshirish uslublari haqida ma'lumotlar berilgan.

Qand jo'xori poyasi sharbatining kimyoviy tarkibi (vitaminlar, umumiy oqsillar, erkin aminokislotalar, makro- va mikroelementlar, og'ir metallar, kraxmal, pektin va b.

miqdorlari) va uning fizik xossa ko'rsatkichlarini (zichligi va qovushqoqligi) aniqlash, poya sharbatini fermentatsiyalash, uni bentonit suspenziyasi yordamida tindirish, presslangan poya tarkibidagi qoldiq uglevodlarni diffuziya (ekstraksiya) yo'li bilan ajratib olish, asal mahsulotining kimyoviy tarkibi (suv, zaiflangan shakar va saxarozaning massaviy ulushlari, mexanik aralashmalar miqdori) va quyultirilgan qand jo'xori sharbatining mikrobiologik ko'rsatkichlarini aniqlash metodikalari batafsil bayon etilgan. Bu paytda qo'llaniladigan Agilent-1200 suyuqlik xromatografi, IBP MS NEXION-2000 mass-spektrometri, HAAKE Viskotester 2 plus rotatsion vizkozimetri va boshqa laboratoriya jihozlari tavsiflangan hamda tajriba natijalarini qayta ishlash metodikasi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Qand jo'xori poyasidan quyultirilgan sharbat olish bo'yicha tadqiqot natijalari”** deb nomlangan uchinchi bobida qand jo'xori sharbatidan ozuqa xom-ashyosi olish borasidagi tajribaviy tadqiqotlar natijalari yoritilgan. Tanlangan qand jo'xori navlari tarkibidagi quruq modda miqdori (QMM) va sharbatning kislotalik ko'rsatkichi pH tahlili natijalari keltirilgan (1-jadval).

1-jadval


Qand jo'xori poyasi tarkibidagi quruq moddalar miqdori va sharbatni kislotalik ko'rsatkichlari

| Vegetatsiya davri | “Qorabosh” | | “Oranjevoye 160” | | “O'zbekiston 18” | |
|-------------------|------------|-----|------------------|-----|------------------|-----|
| | QMM, % | pH | QMM, % | pH | QMM, % | pH |
| Donni to'lishi | 15,0 ± 1 | 5,6 | 15,4 ± 2 | 5,4 | 15,8 ± 2 | 5,3 |
| Sut pishish | 16,0 ± 1 | 5,3 | 17,4 ± 3 | 5,3 | 17,8 ± 2 | 5,2 |
| To'liq pishish | 19,0 ± 1 | 5,2 | 21, 2 ± 1 | 5,2 | 21, 4 ± 2 | 5,1 |

Jadvaldan ko'rinadiki, qand jo'xoring to'liq pishish davrida uning xar uchala navidagi quruq moddalar miqdori 20÷23 % gacha yetishi, uning poyasi sharbatining pH ko'rsatkichi esa 5÷5,3 chegaralarda o'zgarishi mumkin.

Sharbat olish jarayonida qand jo'xori poyasi bargi va donidan tozalanib, 40÷60 mm uzunlikda kesib olindi. Shnekli press vositasida xar bir nav jo'xoring kesilgan poya bo'laklaridan o'rtacha 100 litrdan sharbat siqib olindi. Bu paytda “Qorabosh” navidan 220 kg, “Oranjevoye 160” navidan 240 kg, O'zbekiston 18 navidan esa 250 kg miqdorlarda poya sarf bo'lishi aniqlandi.

Kelgusida sharbati birlamchi tarzda ajratib olingan poya siqmasi tarkibidagi qoldiq uglevodlarni diffuziya (ekstraksiya) usulida iliq suv bilan yuvib olish bo'yicha tajribalar o'tkazildi. Tajriba davomida suvga erib o'tgan quruq moddalar miqdori va diffuziya sharbatining pH ko'rsatkichlarini o'zgarishi quyidagi 1 va 2- rasmlarda tasvirlangan.



1- rasm. Poya siqmasini ekstraksiyalash jarayonida suvda eruvchan quruq moddalar (uglevodlar) miqdorini suv sarfi va haroratiga bog‘liq holda o‘zgarishi

2- rasm. Poya siqmasidan ajratilgan diffuzion sharbatning pH ko‘rsatkichini suv sarfi va haroratiga bog‘liq holda o‘zgarishi

Grafiklardan ko‘rinib turibdiki, o‘rtacha namligi 51,38 %, uglevod miqdori 23 % va pH ko‘rsatkichi 4,8 bo‘lgan poya siqmasini uning massasiga nisbatan 25 % miqdordagi 40 °C haroratli suv bilan ekstraksiyalash jarayonida tarkibida 15,7 % uglevodlar tutgan, pH ko‘rsatkichi 5,3 bo‘lgan diffuzion sok (ekstrakt) ajratib olish mumkin. Poya siqmasini (20 °C) haroratli, massasiga nisbatan 40 % suv bilan ekstraksiyalash samaradorligi past bo‘lib, bunda diffuzion sharbat tarkibidagi quruq moddalar miqdori minimal (4,1 %), sharbatni pH ko‘rsatkichi esa yuqori (6,2) ekanligi kuzatildi

Poya siqmasi tarkibidagi qoldiq uglevodlarni ekstraksiyalash jarayonining optimal parametrlarini aniqlash maqsadida tajriba-kuzatuv natijalari Boks-Benking usuli bo‘yicha qayta ishlandi. Natijada qand jo‘xori poyasi siqmasidan yuvib olingan uglevodlar miqdorini y (%) aniqlash imkonini beruvchi quyidagi ikkinchi darajali uch omilli regressiya tenglamasi olindi:

$$Y = 13,483 + 0,400X_1 - 2,206X_2 - 0,525X_3 - 0,201X_1^2 - 0,619X_1X_2 - 0,206X_1X_3 + 0,061X_2^2 + 0,419X_2X_3 + 0,461X_3^2, \% \quad (1)$$

bu yerda Y - mazkur tajribalar shartlariga ko‘ra poya siqmasidan yuvib olingan uglevodlar miqdori hisoblanib, quyida keltirilgan omillar bilan bog‘liq.

Bu yerda X_1 , X_2 , X_3 - kodlangan omillar ko‘rsatkichlari (suvning harorati, suv miqdori va shneklar aylanish chastotasi):

$$X_1 = \frac{t - 40^0}{20^0}, \quad X_2 = \frac{Q - 25}{25}, \quad X_3 = \frac{N - 1,9}{0,7},$$

Mazkur tenglamani real jarayonga adekvatligi Fisher kriteriysi qiymati bo‘yicha (95 %) o‘rnatildi.

Tajribalarda qand jo‘xori poyasini presslab sharbat ajratish jarayonida shneklarning aylanish tezligi $0,6 \div 1,8 \text{ s}^{-1}$, poya siqmasi tarkibidagi sharbat miqdori $50 \div 54 \%$ va shnekli pressdan chiqarilayotgan sharbat harorati $50 \div 61 \text{ }^\circ\text{C}$ oraliqlarda bo‘lishi aniqlandi. Kelgusi tadqiqotlarda poya siqmasi tarkibidagi uglevodlarni yuvib

olish jarayonining optimal (maksimal) qiymatlari aniqlandi: suv sarfi, siqma massasiga nisbatan 25 %, uning harorati 40 °C va press shnekining aylanish tezligi $1,2 \text{ s}^{-1}$.

Qand jo‘xori sharbati tarkibidagi qandsiz moddalar, kraxmal, pektin, kletchatka va pentozanlar uni tindirish va tozalashni taqozo etadi. Shu sababdan, tajribalarda dastlab sharbatdagi kraxmal va pektin fermentativ parchalandi. Keyingi bosqichda esa sharbatni yuqori molekulyar birikmalar va qandli bo‘lmagan moddalardan tozalash uchun bentonit suspenziyasidan foydalanildi. Bir paytda sharbat tabiiy ravishda ham tindirildi (2-jadval).

2-jadval


Qand jo‘xori poya sharbatining tindirish ko‘rsatkichlari

| Qand jo‘xori navi | Sharbatning tinish muddati | | | Sharbat rangi |
|-------------------|----------------------------|-------------------------|---------|---------------|
| | Tabiiy holda, kun | Bentonit suspenziyasida | | |
| | | l/g | min | |
| “Qorabosh” | 12-14 | 5 | 150÷160 | Qoramtir |
| “Oranjevoye 160” | 10-12 | 4 | 120÷130 | Och sariq |
| “O‘zbekiston 18” | 12-14 | 4 | 140÷150 | Och yashil |


Sharbat tarkibidagi yuqori molekulyar birikmalarni to‘liq cho‘ktirish darajasi o‘rta hisobda 1 l sharbatga 4÷5 g miqdordagi bentonit suspenziyasi qo‘shilganda kuzatildi. Sharbatni tiniqlashish davri “Qorabosh” navi uchun o‘rtacha 160 min (5 g), “Oranjevoye 160” navi uchun 130 min (4 g), “O‘zbekiston 18” navi uchun esa 150 min (5 g) tashkil etdi. Tajriba natijalariga ko‘ra, qand jo‘xori poyasi sharbati tarkibidagi dag‘al zarrachalarni cho‘ktirish uchun bentonit suspenziyasidan foydalanish tavsiya etildi.

Tadqiqotning kyeyingi bosqichida dastlabki quruq moddalari miqdori $a_0=18\div23$ % bo‘lgan sharbatni 60÷70 °C haroratda, 0,05÷0,06 MPa bosim (vakuum) ostida konsentratsiyasi $a_1 = 48\div50$ % gacha bo‘lgan qiyom holatigacha quyultirish jarayonlari o‘rganildi. Sharbatni quyultirish bo‘yicha tajribalar ikki bosqichda, dastlab laboratoriya sharoitida, rotorli bug‘latgichda va ishlab chiqarish sharoitida - ish unumdorligi 100 l/soat bo‘lgan VNIKOP-2 vakuum bug‘latish uskunasiida amalga oshirildi.

Quyultirish jarayonida sharbat konsentratsiyasi a (%) va haroratini t (°C) ortib borishiga mos ravishda uning zichligi ρ (kg/sm^3) va qovushqoqligini μ (Pa·s) o‘zgarishiga ham e‘tibor berildi (3 va 4- rasm).



3 - rasm. Quyultirish jarayonida sharbatning zichligini o'zgarishi



4 - rasm. Quyultirish jarayonida sharbatning qovushqoqligining o'zgarishi

Grafiklardan ko'rinib turibdiki, sharbatning 50 % gacha quyultirish davrida jarayon haroratini ko'tarilishi bilan uning zichligi va qovushqoqligini ortib borishi chegaralari (kg/sm^3) belgilandi: "Qorabosh" navi sharbati zichligi $1,088 \div 1,190$, "Oranjevoye 160" navi sharbati $1,086 \div 1,195$, "O'zbekiston 18" navi sharbati $0,080 \div 1,190$. Sharbatlar qovushqoqligi, mos ravishda, $6 \div 9$ Pa's oralikda ortib borishi aniqlandi.

Qand jo'xori sharbatining tarkibidagi uglevodlar, vitaminlar va oqsil miqdorlari YUSSX usulida aniqlandi, natijalar 3-jadvalda keltirildi.

3-jadval

Quyultirilgan qand jo'xori poyasi sharbatining kimyoviy tahlili natijalari

| Qand jo'xori navlari | Uglevodlar miqdori, mg % | | Vitaminlar miqdori, mg/g | | Oqsil, % |
|----------------------|--------------------------|-------------|--------------------------|-------------|----------|
| | | | | | |
| "Oranjevoye 160" | Fruktoza | 5,475 | B ₁ | 1,256 | 0,74 |
| | Glyukoza | 11,18 | B ₂ | 2,95 | |
| | Saxaroza | 28,12 | B ₆ | 0,324 | |
| | Maltoza | 1,71 | B ₉ | 0,952 | |
| | | | B ₁₂ | 0,845 | |
| | | | PP | 2,23 | |
| | | | C | 2,89 | |
| Jami | 46,48 | Jami | 11,447 | 0,74 | |
| "Qorabosh" | Fruktoza | 5,411 | B ₁ | - | 0,24 |
| | Glyukoza | 11,33 | B ₂ | 8,360 | |
| | Saxaroza | 27,59 | B ₆ | 0,126 | |
| | Maltoza | 1,69 | B ₉ | 0,500 | |
| | | | B ₁₂ | 3,463 | |
| | | | PP | 0,956 | |
| | | | C | - | |
| Jami | 46,02 | Jami | 11,405 | 0,24 | |
| "O'zbekiston 18" | Fruktoza | 6,98 | B ₁ | - | 1,03 |
| | Glyukoza | 12,24 | B ₂ | | |
| | Saxaroza | 26,91 | B ₆ | | |

| | | | | | |
|--|-------------|--------------|-----------------|---------------|-------------|
| | Maltoza | 1,57 | B ₉ | 0,161 | |
| | | | B ₁₂ | 7,641 | |
| | | | PP | 0,424 | |
| | | | C | 0,812 | |
| | Jami | 47,43 | Jami | 13,405 | 1,03 |

Tajriba natijalari sharbat tarkibidagi uglevodlar miqdori “Qorabosh” navida 46,02, “Oranjevoye 160” navida 46,48 va “O‘zbekiston 18” navida esa 47,43 foizni tashkil etishini, suvda eruvchi vitaminlar miqdori (mg/g) esa Oranjevoye 160” navida 11,447, “Qorabosh” navida 10,405, “O‘zbekiston 18” navi sharbatida 13,405 bo‘lishini ko‘rsatdi.

Tajriba natijalariga ko‘ra qand jo‘xori sharbatining ozuqaviylik qiymati yetarli darajada yuqori ekanligi asoslandi.

Laboratoriya tahlillari barcha qand jo‘xori navlaridagi makro- va mikroelementlar miqdori deyarli bir xil bo‘lishini ko‘rsatdi (4-jadval).

4-jadval

Qand jo‘xori sharbati tarkibidagi makro va mikro elementlar miqdori

| Qandjo‘xori poya sharbati | Makro- va mikroelementlar miqdori, 100 mg/g | | | | | | | |
|---------------------------|---|-----------------|-----------------|-----------------|-----------------|-----------------|-----------------|-----------------|
| | Na ⁺ | Mg ⁺ | Al ⁺ | Ca ⁺ | K ⁺ | Fe ⁺ | Mn ⁺ | P ⁺ |
| | 2,480 | 1,727 | 2,10 | 3,009 | 9,806 | 1,092 | 2,909 | 7,743 |
| Qandjo‘xori poya sharbati | Makro- va mikroelementlar miqdori, 100 mg/g | | | | | | | |
| | Mo ⁺ | S ⁺ | Cu ⁺ | Se ⁺ | Cr ⁺ | Si ⁺ | Zn ⁺ | Co ⁺ |
| | 0,015 | 1,032 | 0,197 | 0,019 | 0,019 | 3,7761 | 0,177 | 1,377 |

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, asalari oilalari uchun ozuqa sifatida foydalaniladigan sharbat tarkibidagi mavjud makro- va mikroelementlar miqdorlari uning minerallarga boyligini ko‘rsatadi.

Oziq-ovqat mahsulotlari tarkibidagi yuqori zaxarlilikka ega og‘ir metallar me‘yori SanQvaMda qat‘iy belgilangan. Asalari oilalari uchun asosiy ozuqa komponenti sifatida ko‘rilayotgan qand jo‘xori sharbati tarkibidagi og‘ir metallar miqdori mass-spektrometriya IBP MS usulida tahlil qilindi (5-jadval).

5-jadval

Qand jo‘xori sharbati tarkibidagi og‘ir metallar miqdori

| Qandjo‘xori poya sharbati | Og‘ir metallar miqdorlari, mg/g | | | | | |
|---------------------------|---------------------------------|-------|-------|-------|--------|-------|
| “Oranjevoye 160” | Zn | Cu | Pb | Cd | Hg | As |
| | 1,377 | 0,197 | 0,029 | 0,002 | 0,005 | 0,005 |
| “Qorabosh” | 1,012 | 0,37 | 0,028 | 0,001 | 0,0749 | 0,003 |
| “O‘zbekiston 18 ” | 1,158 | 0,26 | 0,067 | 0,002 | 0,0549 | 0,007 |
| SanQvaM talabi bo‘yicha | 10,0 | 5,0 | 0,3 | 0,03 | 0,1 | 0,005 |

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar barcha qand jo'xori navlaridan olingan sharbatlar tarkibidagi og'ir metallar miqdori bo'yicha SanQvaM 0366-19 talablariga to'la javob berishini ko'rsatadi. Masalan, "Oranjevoye 160" navi sharbat tarkibidagi Zn miqdori 1,377 mg/g ni tashkil etib, SanQvaM 0366-19 da keltirilgan ruxsat etilgan me'yordan 7,7 marta kam. Shuningdek, sharbatdagi Cu miqdori belgilangan me'yordan 25 marta, Pb miqdori 10,3 marta, Cd miqdori 15 marta va Hg miqdori esa 20 marta me'yoriy cheklovlardan kam ekanligi, shuningdek As miqdori ruxsat etilgan me'yorda ekanligi aniqlandi. Demak, asalari ozuqasi sifatida taklif etilayotgan qand jo'xori sharbati og'ir metallar miqdori bo'yicha SanQvaM talablariga to'liq javob beradi.

Quyultirilgan qand jo'xori sharbatining mikroorganizmlar bilan zararlanish darajasini aniqlash borasidagi mikrobiologik tahlillar natijalari uni asalari hayotiga xafv soluvchi zararli mikroorganizmlardan xoli ekanligini ko'rsatdi (6-jadval).

6-jadval

Quyultirilgan qandjo'xori sharbatining mikrobiologik tahlili


| Mikrobiologik ko'rsatkichlar | 50 %-li qand jo'xori qiyomi | № 0366-19-sonli SanQvaM bo'yicha belgilangan me'yor |
|---|-----------------------------|---|
| Umumiy mikrob KMAFAM KOY, 1,0 g/sm ³ dan ko'p emas | mavjud emas | 2,5·4 |
| BGKP, g/sm ³ , yo'l qo'yilmaydi | mavjud emas | 1,0 |
| Kasallik qo'zg'atuvchi patogen flora Salmonella, g/sm ³ , yo'l qo'yilmaydi | mavjud emas | 50 |
| Zamburug', achitqi KOY, 1,0 g/sm ³ dan ko'p emas | mavjud emas | 100 |
| S.Aureus, g/sm ³ , ko'p emas | mavjud emas | 1,0 |
| L.Monocitigenes, g/sm ³ , yo'l qo'yilmaydi | mavjud emas | 50 |
| B. Cereus, g/sm ³ , yo'l qo'yilmaydi | mavjud emas | 200 |

Tahlil natijalariga asoslanib, saqlash talablariga rioya etilgan sharoitda - havo harorati 16±2 °C va nisbiy namligi 70÷75 % bo'lgan holatda quyultirilgan qand jo'xori sharbatini bir yil muddat saqlash mumkinligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning **"Qand jo'xori poyasidan sharbat olish va asalari ozuqasi tayyorlash texnologiyasining texnik-iqtisodiy asoslari"** deb nomlangan to'rtinchi bobida qand jo'xori poyasidan asalari oilalari uchun ozuqa tayyorlash texnologik jarayonlarining tavsiya etilgan prinsipial texnologik sxemasi, uni amalga oshirishning mashina apparaturaviy tizimi (5-rasm) va mazkur texnologiyani ishlab chiqarishga joriy etishning iqtisodiy samaradorligi hisoblari keltirilgan.

Tavsiya etilayotgan texnologik tizim quyidagi tartibda ishlaydi. Qand jo'xori poyasi kesish mashinasida 1 40÷60 mm uzunlikdagi bo'laklarga qirqilib, shnekli pressga 2 uzatiladi va undan birlamchi tartibda sharbat olinadi. Xosil bo'lgan poya siqmasi ikkinchi marotaba qayta presslanadi. Yig'ilgan poya sharbati nasos 3 orqali fermentatsiya apparatiga 4 uzatiladi. Bu yerda sharbat tarkibidagi kraxmal va pektin moddalari amilaza va pektinaza fermentlari ishtirokida parchalanadi. Buning uchun

apparatga pektinaza fermenti uchun bachok 7 va dozator 9, amilaza fermenti uchun bachok 6 va dozator 8 o'rnatilgan. Biopolimerlarni fermentatsiyalash jarayonida sharbat "nasos 5 - qurilma 4" tizimida, parchalanish darajasini ko'rsatuvchi asbob 10 ko'rsatkichi bo'yicha, sirkulyasiyalanadi.



1 - kesish mashinasi; 2 - shnekli press; 3, 5, 19, 21, 18, 22, 23, 24, 25 va 28 - nasoslar; 4 - sharbat yig'uvchi sig'imli idish; 6 - amilaza uchun idish; 8 - amilaza dozatori; 7 - pektinaza uchun idish; 9 - pektinaza dozatori; 10 - pektin va kraxmalni parchalanish darajasini ko'rsatuvchi asboblar; 11 - bentonit suspenziyasi uchun idish; 12 - bentonit dozatori; 13 - tindirgich; 14 - vakuum-bug'latish uskunasi; 15 - shnekli transportyor; 16 - kichik press; 17 - boyler; 20 - ekstraktor; 26 - konsentrat idishi; 27 - shakar qiyomi tayyorlash apparati; 29 - aralashtirgich; 30 - qadoqlash mashinasi; 31 - avtoklav; 32 - tayyor mahsulot konteyneri.

5-rasm. Qand jo'xori poyasidan asalari oilalari uchun ozuqa tayyorlash jarayonlarining mashina-apparaturaviy tizimi

Sharbatni tindirish uchun bachokda 11 bentonit kukuni suspenziyasi tayyorlanadi va dozator 12 orqali tindirgichga 13 uzatiladi. Sharbat va bentonit suspenziyasi o'rtasida kechadigan kolloid tabiatli jarayonlar ta'siri ostida sharbatni fermentativ tindirish jarayoni tezlashadi.

Poya siqmasi tarkibidan qoldiq uglevodlar quyidagi tartibda yuvib olinadi. Poya siqmasi shnekli transporter 15 vositasida kichik hajmli setkali presslash uskunasi 16 yuboriladi, unga nasos 18 orqali boylerda 17 isitilgan 40÷50 °C haroratdagi suv beriladi va aralashtirilgan holatda presslanadi. Hosil bo'lgan diffuziya sharbati nasos 19 orqali ekstraktorga 20 yig'iladi.

Keyingi bosqichda ekstrakt (diffuziya sharbati) ekstraktordan 20 nasos 21 vositasida yig'uvchi idishga 4 uzatiladi va unda birlamchi sharbat bilan aralashtirilib, tozalash bosqichlaridan o'tkaziladi.

Tindirilgan sharbat vaakum- bug'latish uskunasi 14, 60÷70 °C harorat va 0,05÷0,06 MPa bosim ostida quyultirilib, uning tarkibidagi quruq moddalar miqdori 48÷50 % ga yetkaziladi.

Quyultirilgan sharbat yarim tayyor mahsulot sifatida nasos 24 orqali yig'uvchi idishga 26 uzatiladi, qadoqlash uskunasi 30 shisha bankalarga quyilib, avtoklavda 31 100÷110 °C haroratda sterillanadi va konteynerga 32 saqlash uchun joylanadi.

Quyultirilgan qand jo‘xori sharbatidan asalari uchun ozuqa manbai quyidagicha tayyorlanadi. Texnologik sxemadagi nasos 25 vositasida sterilizatsiyaga uzatilayotgan sharbat qonsentrati (48÷50 %), foydalanuvchi talabidan kelib chiqib, nasosga o‘rnatilgan jo‘mrak orqali aralashtirgichga 29 beriladi. Sirop tayyorlash qozonida 27 avvaldan tayyorlangan qiyom (shakar va suv nisbati 1:1) ham nasos 28 orqali aralashtirgichga 29 uzatiladi. Mazkur qurilmada tayyorlangan bir xil konsistensiyali aralashma kelgusida asalari uchun tabiiy ozuqa sifatida foydalanishga beriladi.

Tadqiqot davomida quyultirilgan qand jo‘xori sharbati va an’anaviy shakarli qiyom turli xil nisbatlarda aralashtirilib, asalari oilalariga ozuqa sifatida berib ko‘rildi.

Ozuqa namunalari shakar qiyomiga (Q), uning massasiga nisbatan, 10, 30, 50 va 70 % miqdorlarda quyultirilgan sharbat (Sh) qo‘shib tayyorlandi. Tadqiqotlarda 3 ta tajriba ob‘yektida xar birida 2 tadan asalari oilasi joylashgan 5 tadan quti tanlab olindi. I qutiga quyultirilgan sof qand jo‘xori sharbati (nazorat uchun), II qutiga 10%Sh+90%Q, III qutiga 30%Sh+70%Q va IV qutiga 50%Sh+50%Q va V qutiga esa 70%Sh+30%Q tarkibida tayyorlangan ozuqa berildi.

Sinov tajribalari 2021-2022 yilning sentyabr, oktyabr, mart va aprel oylarida o‘tkazildi. Tayyorlangan ozuqa namunalarini asalari oilalari tomonidan iste‘mol qilinish darajasini aniqlash bo‘yicha olingan natijalar quyidagi 7- jadvalda keltirildi.

7-jadval

Quyultirilgan qand jo‘xori sharbati va shakar qiyomi aralashmasidan tayyorlangan asalari ozuqasining iste‘mol darajasini aniqlash natijalari

| Namuna | Shakar qiyomi, % | Quyultirilgan sharbat, % | Tayyor ozuqa | | Iste‘mol qilish darajasi % | | | Umumiy natija % |
|-----------------------|------------------|--------------------------|--------------|-------------|----------------------------|----------------------|------------------------|-----------------|
| | | | Massa I | Harorat, °C | I ob‘yekt (Yangi qo‘rg‘on) | II ob‘yekt (Chortoq) | III ob‘yekt (Toshkent) | |
| Quyultirilgan sharbat | 0 | 100 | 10 | 30÷35 | 70÷75 | 75÷80 | 70÷72 | 70 ÷75 |
| I namuna | 90 | 10 | 10 | 30÷35 | 90÷95 | 95÷100 | 100 | 100 |
| II namuna | 70 | 30 | 10 | 30÷-35 | 90÷95 | 100 | 100 | 100 |
| III namuna | 50 | 50 | 10 | 30÷35 | 90÷95 | 90÷97 | 95÷100 | 95÷97 |
| IV namuna | 30 | 70 | 10 | 30÷35 | 88÷90 | 85÷-88 | 85÷90 | 88÷90 |

Tajriba natijalari tahlili tayyorlangan 10%Sh+90%Q, 30%Sh+70%Q va 50%Sh+50%Q ozuqa namunalarini asalari oilalari tomonidan iste‘mol qilinishi 95 % dan yuqori, 70%Sh+30%Q namunasi uchun esa iste‘mol ko‘rsatkichi 89 ± 1 % ni tashkil etishini ko‘rsatdi.

Barcha navdagi qand jo‘xori poyalaridan olingan sof sharbatni (nazorat varianti) asalari oilalari tomonidan iste‘mol qilinishi darajasi o‘rtacha 75 % ni tashkil etdi, 25 % ga yaqin poya sharbati ozuqasi likopchalarda qolganligi kuzatildi. Asalari oilalari kunora oziqlantirilishi, vaqt o‘tishi bilan qoldiq ozuqada fermentativ o‘zgarishlar kechishi va uni mikroorganizmlar bilan zararlanish ehtimoli mavjudligi e‘tiborga olinib, ozuqa likopchalardan olib tashlab turildi.

Mavsumdan tashqari davrlarda tayyorlangan ozuqa bilan asalarilarni boqish

paytida salbiy ta'sirlar kuzatilmadi.

Tadqiqotlarda qand jo'xorini mahalliy navlari poyasidan olingan quyuq sharbat Respublikamiz asalarichilik sanoati uchun qo'shimcha yangi, tabiiy toza ozuqa manbai ekanligi isbotlandi.

Qand jo'xori sharbati bilan oziqlantirilgan asalari asalining kimyoviy tarkibi GOST 19792-2001 talablari asosida Respublika hayvon kasalliklari tashhisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi Davlat markazi laboratoriyasida tahlil qilindi va talab etilgan me'yorlarga javob berishi isbotlandi.

Tavsiya etilayotgan ozuqa bilan oziqlantirilgan asalari asali tarkibida suv miqdori 20,02 %, zaiflashgan shakar massaviy ulushi 79,0 %, umumiy kislotaligi 2,7, diastaza soni 29,2, quruq modda miqdori 79,8 % hamda qo'shimcha shakar va kraxmal mavjud emasligi aniqlandi.

Quyultirilgan qand jo'xori sharbatidan asalari ozuqasi ishlab chiqarish texnologiyasini Toshkent viloyati Oxangaron tumanidagi "Hilol asalchi bahor" MCHJ, Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumanidagi "Nazijon, Ilhomjon, Arabboy", Chortoq tumanidagi "Abdug'affor, Abduvoxid, Umidjon" nomli asalarichilik xo'jaliklarida joriy etishdan kutiladigan iqtisodiy samaradorlik hisoblari bajarilgan (8-jadval).

8-jadval

Quyultirilgan qand jo'xorini poya sharbatidan asalari ozuqasi sifatida foydalanishni joriy etishdagi iqtisodiy samaradorlik

| Oziqlantirish usuli | Asalari oilalari | Umumiy xarajatlar, mln so' m | Olingan asal, kg | Mahsulotlar | | Yalpi daromad mln/so' m | Sof daromad, mln/so' m | Rentabellik darajasi % | Farqi |
|---|------------------|------------------------------|------------------|---------------------|------------------------|-------------------------|------------------------|------------------------|-------|
| | | | | Tan narxi, kg/so' m | Sotish baxosi kg/so' m | | | | |
| An'anaviy usulda oziqlantirilgan | 20 | 2,2 | 320 | 60875 | 120000 | 38,4 | 36,2 | 16,4 | |
| Tavsiya etilgan ozuqa bilan oziqlantirilgan | 20 | 1,6 | 320 | 50000 | 120000 | 38,4 | 36,8 | 23,0 | 6,6 |

Jadval natijalariga ko'ra, xar ikki usulda oziqlantirilgan asalari oilalaridan o'rtacha 320 kg dan asal olingan.

An'anaviy usulda (I) boqish uchun umumiy xarajatlar 2,2 mln so'm; olingan asalning tan narxi 60875 so'm; yalpi daromad; 38,4; sof daromad 36,2; rentabellik darajasi 16,4 % ni tashkil etdi.

Tavsiya etilgan usulda (II) boqilgan asalari oilasida umumiy xarajatlar 1,6 mln so'm; asalning tan narxi 50000 so'm; yalpi daromad; 38,4; sof daromad 36,8; rentabellik darajasi 23 % ni tashkil etdi.

Tavsiya etilgan usulda asalari oilalarini oziqlantirish va olingan asalning rentabellik darajasi an'anaviy usulga nisbatan 6,6 % yuqori bo'lishi aniqlandi.

Ushbu tahlillarga asosan asalari oilalarini mavsumdan tashqari davrlarda oziqlantirish uchun shakar sarfini kamaytirish, asalni tabiiy xushboʻylikni oshirish va vitaminlar bilan boyitishda qand joʻxori sharbati bilan oziqlantirish mumkin boʻlib, mahsulotni tannarxini arzonlashtirishga erishish va yuqori iqtisodiy foyda olish mumkinligi isbotlandi.

Tadqiqot ishining iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish hamda ijtimoiy baxolash natijalariga asosan:

yuqori xavfsizlik va kimyoviy tarkibi jihatidan foydali ozuqa sifatida asalari oilalariga isteʼmol uchun tavsiya etish;

tabiiy ozuqa manbai sifatida asalari oilalarini normal rivojlanishi va sermahsulligini oshirish, ekologik toza asal mahsulotlarini xajmini ortishiga xizmat oilishi;

iqtisodiy jihatdan samarali va istiqbolli dagan xulosaga kelish mumkin.

Olingan natija va tahlillarga asosan quyultirilgan qand joʻxori poya sharbatidan asalari oilalari uchun tabiiy ozuqa tayyorlash texnologiyasi boʻyicha tavsiyanoma ishlab chiqildi.

XULOSA

1. Qand joʻxorining erta pishar “Qorabosh”, oʻrta pishar “Oranjevoye 160” va kech pishar “Oʻzbekiston 18” navlari tarkibidagi quruq moddalar miqdori (mass. %) $19 \div 21$, $20,2 \div 22$ va $21,4 \div 23$ oralikda boʻlishi aniqlangan.

2. Qand joʻxori sharbati tarkibida makroelementlar miqdori (mg/g) - Ca (3,0091), K (9,80), Fe (1,092), Mg (1,727), P (7,743) hamda Al, Mn, Cu, Co, Si, Cr, Mo, S, Se va Zn mikroelementlari, uglevodlar (46,48 %), oqsil (0,74 %), aminokislotalar (9,915 mg/g), va vitaminlar (mg/l) B₁ (1,27), B₂ (2,95), B (0,325), B₉ (1,0), S (2,89), PP (2,23) mavjudligi aniqlanib, uning tarkibidagi ogʻir metallar miqdori SanQvaM 0366-19 boʻyicha ruxsat etilgan meʼyorlardan kam ekanligi isbotlangan.

3. Qand joʻxori poyasidan presslash usulida sharbat ajratib olish va poya siqmasi tarkibidagi qoldiq uglevodlarni diffuziya (ekstraksiya) usulida maksimal ajratib olish jarayonlarida suv sarfi, siqma massasiga nisbatan, 25 %, suv harorati 40 °C va press shneking aylanish tezligi $1,2 \text{ s}^{-1}$ boʻlishi aniqlangan.

4. Qand joʻxori sharbatini bugʻlatib quyultirish jarayoni texnologik parametrlarining optimal chegaralari belgilangan: sharbatni qizdirish harorati $45 \div 50$ °C, qurilmadagi ishchi bosim 94 kPa va quyultirilgan sharbat tarkibidagi quruq moddalar konsentratsiyasi 48 ± 2 %. Quyultirilgan sharbatning kimyoviy tarkibi va fizik xossa koʻrsatkichlari: zichligi $1,08 \div 1,2 \text{ kg/sm}^3$ va qovushqoqligi $6 \div 9 \text{ Pa}\cdot\text{s}$ aniqlangan.

5. Qand joʻxori poyasidan sharbat olish va asalari uchun ozuqa tayyorlash texnologiyasi va uni amalga oshirishning mashina-apparaturaviy tizimi tavsiya etildi.

6. Quyultirilgan qand joʻxori sharbatidan asalari ozuqasi sifatida foydalanish meʼyorlari ishlab chiqilgan. Qand joʻxori sharbati (Sh) va anʼanaviy shakar qiyomini (Q) quyidagi nisbatlarda aralashtirib tayyorlangan ozuqa namunalari asalari oilalari

tomonidan iste'mol qilinish ko'rsatkichlari (%) ornatilgan: 10%Sh+90%Q, 30%Sh+70%Q va 50%Sh+50%Q - 95 % dan yuqori, 70%Sh+30%Q - 89±1 %. Quyultirilgan qand jo'xori sharbati bilan oziqlantirilgan asalari oilasidan olingan asal tarkibidagi suvning ulushi 20,2 % (mass.) gacha, undagi zaiflangan qandning massa ulushi esa 79 % ekanligi aniqlangan.

7. Quyultirilgan qand jo'xori poya sharbatidan asalari oilalari uchun ozuqa tayyorlash texnologiyasi bo'yicha tavsiyanoma ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etishdagi rentabellik 23 % ni tashkil etishi yoki an'anaviy usulda oziqlantirishdan 6,6 % ga yuqori ekanligi isbotlangan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ
PhD.03/31.03.2023.Т.66.05 ПРИ НАМАНГАНСКОМ ИНЖЕНЕРНО-
ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

НАМАНГАНСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

АБДУРАЗЗАКОВА МАМУРА НЕМАТЖОНОВНА

**РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ ПОЛУЧЕНИЯ СОКА ИЗ СТЕБЛЕЙ
САХАРНОГО СОРГО (SORGHUM SACCHARATUM PERS) И
ПРИГОТОВЛЕНИЯ КОРМА ДЛЯ ПЧЁЛ**

**02.00.17 - Технологии и биотехнологии обработки, хранения и переработки
сельскохозяйственных и пищевых продуктов**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Наманган - 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2021.3.PhD/T2360.

Диссертация выполнена в Наманганском инженерно-технологическом институте и Тошкентском государственном аграрном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.nammti.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель:

Азизов Ақтам Шарипович

доктор сельскохозяйственных наук, профессор

Официальные оппоненты:

Маматов Шерзод Машрабжонович

доктор технических наук, профессор

Дадамирзаев Музаффар Хабибуллаевич

кандидат технических наук, доцент

Ведущая организация:

Андижанский государственный университет

Защита состоится “04” октября 2024 года в “14⁰⁰” часов на заседании Научного совета PhD. 03/31.03.2023.Т.66.05 при Наманганском инженерно-технологическом институте по адресу: 160115, г. Наманган, ул. Касансайская, 7. Тел: (69) 225-10-07, факс: (69) 228-76-75, e-mail: niei_info@edu.uz, корпус № 3, этаж 1, зал Научного совета, ауд. 303.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Наманганского инженерно-технологического института (зарегистрировано за № 311). Адрес: 160115, г. Наманган, ул. Касансайская, 7. Тел: (69) 225-10-07, факс: (69) 228-76-75

Автореферат диссертация разослан “ 20 ” сентября 2024 года.
(реестр протокола рассылки № 11 от “ 20 ” сентября 2024 года.

А.А. Худайбердиев
Председатель Научного совета по
присуждению ученой степени, д.т.н., профессор



О.Т. Маллабоев
Ученый секретарь Научного совета
по присуждению ученой степени, д.ф.т.н., доцент

А.М. Хурмамаев
Председатель Научного семинара
при Научном совете по присуждению
ученой степени, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Сегодня, в результате роста численности населения в мире актуальным вопросом остается увеличение объемов производства сельскохозяйственной продукции, расширение ассортимента продовольственной продукции и обеспечение продовольственной безопасности. По этой причине возрастает потребность в продуктах питания, богатых различными макро- и микроэлементами, углеводами, белками и витаминами, в том числе и в продуктах, изготовленных с добавлением мёда и медовых продуктов. Здесь большое внимание уделяется исследованиям по расширению интеграции предприятий пищевой отрасли с субъектами первичной переработки сельскохозяйственной продукции, а также совершенствованию технологий производства продукции и созданию высокоэффективных компактных конструкций технологического оборудования на основе достижений науки и техники. В этом аспекте важное научно-практическое значение имеют исследования, направленные на расширение производства качественного меда в пчеловодческих хозяйствах, соответствующих требованиям международных стандартов.

